



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Saparova Dilshoda Adashevna

*Samarqand viloyati PYMO'MM Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi
Tabiiy fan (STEM) metodisti, Oliy toifali geografiya fan o'qituvchisi*

ILMLILIKNI VATANPARVARLIK BILAN SUG'ORISH. XXI ASRDA INTELLUKTUAL MIGRATSIYA

Annotatsiya: Xalqaro migratsiya jarayonining mohiyati, migratsiya turlari migratsiya jarayonining turli hududlarda faollashish sabablari, O'zbekistonda migratsiya jarayoni bilimli yoshlar qatlamining chet davlatlariga ketib qolqyotganligi, intellektual migratsiya sabab va oqibatlari, XXI asrda inson kapitalining globallashuvi.

Kalit so'zlar: Migratsiya, intelluktual migratsiya, xalqaro mehnat taqsimoti, remitans, raqamli texnologiya, startaplar, iqtisodiy o'sish, inson kapitali.

Saparova Dilshoda Adashevna

Samarkand Region PYMO'MM Methodical Service Department

NATURAL SCIENCE (STEM) METHODOLOGIST, SENIOR GEOGRAPHY TEACHER

Abstract: *The essence of the international migration process, types of migration, the reasons for the activation of the migration process in different regions, the fact that the migration process of educated young people in Uzbekistan is leaving for foreign countries, the causes and consequences of intellectual migration, the globalization of human capital in the 21st century.*

Key words: *Migration, intellectual migration, international division of labor, digital technology, startups, economic growth, human capital.*

Сапарова Дилюшода Адашевна

Отдел методической службы ПИМО'ММ Самаркандской области

МЕТОДИСТ ЕСТЕСТВОЗНАНИЯ (STEM), СТАРИШИЙ ПРЕПОДАВАТЕЛЬ ГЕОГРАФИИ

Аннотация: *Сущность международного миграционного процесса, виды миграции, причины активизации миграционного процесса в различных регионах, факт выезда образованной молодежи Узбекистана в зарубежные страны, причины и*



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

последствия интеллектуальная миграция, глобализация человеческого капитала в XXI веке.

Ключевые слова: Миграция, интеллектуальная миграция, международное разделение труда,ремитанс, цифровые технологии, стартапы, экономический рост, человеческий капитал.

KIRISH

Xalqaro mehnat migratsiya mohiyati dunyo bo'ylab odamlarning bir mamlakatdan boshqa mamlakatga ish topish uchun o'z joyini o'zgartirishni anglatadi. Bunday o'zgartirish diniy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sabablarga bog'liq bo'lgan holda sodir bo'ladi. Har qanday zamon va makonda ham bunday aqliy ko'chish sodir bo'lgan. Bunday ko'chish jarayonlaridan qaysidir davlatlarga naf keltirgan, qaysidir davlatlarga esa ziyon bo'lgan. Xalqaro mehnat migratsiyasining ba'zi asosiy sabablarni quyidagilarda ko'ramiz:

Ish imkoniyatlari: Insonlar xalqaro mehnat migratsiyasini ayniqsa, ish imkoniyatlari va o'zlarining maoshlarini oshirish uchun munosib ish qidirishadi. Boshqa mamlakatlarda ish o'rirlari bo'shlig'i, katta korporatsiyalarning o'ziga xos mutaxassislarni izlashi yoki ko'p pul daromad olish imkoniyati borligi sababli mehnat migratsiyasi butun dunyoda o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda.

Iqtisodiy salohiyat: Xalqaro mehnat migratsiyasi, mamlakatlarning iqtisodiy oqimlariga ta'sir qiladi. Ko'pchilik mamlakatlarda xalqaro ishchi kuchining yuqori bo'lishi, yangi g'oyalar va innovatsiyalarni olib kelish, mamlakatlar orasidagi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, migratsiya mamlakatlarga katta miqdordagi remitans (pul o'tkazmalari) kiritish orqali valyuta mablag'larining oshishiga sabab bo'lishi mumkin.

Diniy munosabatlar: Dunyo miqiyosida diniy mujarolarning sodir bo'lishi va xanuzgacha davom etayotganligi, migratsiya jarayoniga ta'sir etib kelmoqda. Insonlar tinch va ijtimoiy-siyosiy barqaror bo'lgan hududlarga ko'chib borishi kuzatilmoqda. Bu jarayon ham, ijobiy, ham salbiy holatlarni keltirib chiqarmoqda. Yaqin Sharq muammosi, Tolibonchilar harakati qochoqlar migratsiyasiga sabab bo'lmoqda. Buning oqibatida davlatlarda yuzaga kelayotgan turli norozichiliklar, iqtisodiyot tarmoqlarining inqirozi, aholi farovonligiga ta'sir etib kelmoqda.

Ijtimoiy-siyosiy munosabatlar: Aholining turmush darajasining pastligi, tabaqlanish jarayoning xanuzgacha davom etishi, korrupsiyaning avj olganligi, siyosiy huquqlarning cheklanganligi kabi omillar ham, xalqaro migratsiya jarayoniga ta'sir etib kelmoqda.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Tabiiy sharoit va iqlim imkoniyatlari: Ushbu omil dunyoning 60 % dan ortiq davlatlarida asosiy migratsiya jarayoniga ta'sir etib kelmoqda. Ayniqsa, Hindiston davlatidagi ekologik holatning yomonlashuvi, Afrikaning ko'pgina davlatlarida turli kasalliklarning tarqalishi, suvsizlik muammosi: Isroil, Quvayt, Qatar, Jazoir jumladan, Markaziy Osiyo davlatlarida ham, ushbu muammo dolzarbligicha qolmoqda.

Rivojlangan davlatlarda ekologik holatning yomonlashuvi, Is gazining ortishi natijasida global iqlimning isib borishi, turli kasalliklarning tarqalishi aholi migratsiyasiga sabab bo'lmoqda.

Germaniya, Niderlandiya, Belgiya va Fransiya davlatlarida is gazining ortishi oqibatida AESlarning vaqtinchalik to'xtatib turishga sabab bo'lishi, buning natijasida boshqa ishlab chiqarish sohalarining faoliyatiga ham ta'sir etishi kuzatilgan. Shuningdek, suv toshqinlarining yildan-yilga kuchayib borishi ayniqsa, Fransiya, Italiya, Ispaniya hududlarida keyingi 5 yilda bu jarayon kuchayib bormoqda.

Xalqaro mehnat migratsiyasi vaqtinchalik va doimiy, migratsiya turlariga bo'linadi :

-Vaqtinchalik migratsiya ma'lum muddatga, ko'pincha mavsumiy yoki shartnoma ishlarini bajarish uchun boshqa davlatga ko'chib boradigan shaxslar tushuniladi. Boshqa tomondan, doimiy migratsiya odamlarni uzoq muddatli yoki doimiy yashash joyiga aylantirish niyatida yangi mamlakatga ko'chishini o'z ichiga oladi. Vaqtinchalik migratsiya bora-bora doimiy migratsiyaga aylanadi. Bu jarayonga turli omillar sabab bo'ladi. Iqtisodiy ta'minlanganlik, yaxshi maosh, ijtimoiy faol hayot tarzi va h.o .

ASOSIY QISM. Xalqaro mehnat migratsiyaning eng global yo'nalishlaridan biri intellektual migratsiyadir. Bunday migratsiya jamiyatning aqliy ko'chish jarayoni ham deb yuritiladi. Ikkinci jahon urushidan so'ng juda katta yo'qotishlar Yevropa mamlakatlari uchun ushbu migratsiya jarayonini vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

XX-XXI asrlarda Germaniyada intellektual migratsiya. Yevropa mamlakatlariga ommaviy migratsiya ikkinchi jahon urushi tugaganidan keyin faol boshlandi. Yevropa emigratsiya markazidan immigratsiya markaziga aylandi. Shu bilan birga, boshqa qabul qiluvchi davlatlar bilan taqqoslaganda, XX asrning ikkinchi yarmida Germaniyaga immigrantlar oqimi eng katta xilma-xillik bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, ushbu davrda Germaniyaga migratsiyaning boshqa jumladan, boshipana izlovchilar, mavsumiy va vaqtinchalik ishchilar, malakali mutaxassislar, shuningdek, talabalar uchun yo'nalishlari ochildi. Biroq, etnik



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

migratsiya uzoq vaqtidan beri muhohirlarning umumiy oqimida hukmronlik qilgan. Ilm sohasida faoliyat yuritayotgan insonlarni Amerika Qo'shma Shtatlari o'z hududiga yuqori maosh, qulay sharoitlar yaratib berish orqali qabul qildi. Bunday vaziyatdan unumli foydalangan AQSH lari iqtisodiyotida tub burilish yasashga asos bo'ldi. Ushbu yuqorida keltirilgan Germaniyadagi "Aql ko'chishi" jahondagi ko'pgina boshqa mamlakatlarda ham kuzatilgan. Bunday inellektual immigratsiya jarayoni tahlil qilinganda barcha immigrant davlat (yuqori salohiyatli kadrlarini yuqotgan)lar juda katta iqtisodiy potensialini yo'qotishga sabab bo'lgan.

Demak, xalqaro inelektuall migratsiya, ya'ni ulkan o'zgarishlar bilan insonlarning ilmiy bilimlar, innovatsiyalar va intellektual kapitalni o'zgartirish uchun boshqa mamlakatlarga o'tishini ifodalaydi. Bu o'zgarishlar odatda oliv ta'lim muassasalarida o'qish, ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va tajribalar uchun yuridik, iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarga ega bo'lgan mamlakatlarda yuzaga keladi.

Xalqaro inelektuall migratsiya, o'zining afzalliklari va muammolariga ega bo'lsa-da, u odatda mamlakatlar uchun qiyinchiliklarni ham o'z ichiga oladi. Mamlakatlarning ilmiy, salohiyatli kadrlarining yo'qotilishi, ularga investitsiya qilgan resurslarni yo'qotish, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni kuchaytirish, innovatsiyalar va sifatli xizmatlarni yaratish imkoniyatlarini cheklash kabi salbiy ta'sirga ega bo'lishi mumkin. Shuningdek, o'z mamlakatidan ketish, o'z bilim va tajribasini boshqa mamlakatlarga olib borish orqali, o'z mamlakatiga o'zaro aloqalar, innovatsiyalar va rivojlanishni o'zgartirish imkoniyatlarini yo'qotish ham mumkin.

Bundan tashqari, xalqaro inelektuall migratsiya mamlakatlar orasida imkoniyatlarni taqsimlashga olib kelishi mumkin. O'z resurslarini yaxshilash uchun yuqori darajali bilimdonlarga yoki kasbiy mutaxassisiga ega bo'limgan mamlakatlar, xalqaro inelektuall migratsiya orqali yetuk imkoniyatlardan mahrum bo'lib qolishadi. Bu esa mamlakatlarning o'zaro ta'sir va hamkorlik qobiliyatini cheklash va sog'lom rivojlanishini to'xtatish mumkin.

O'zbekiston hududida ham, intellektual migratsiya jarayoni keyingi paytda dolzarb tus olmoqda. Ayniqsa, intellektual pontensiali yuqori bo'lgan yoshlarni chet elga ishslash maqsadida chet tillarini o'rganiyotganligi mamlakatimizda katta iqtisodiy yo'qotishni keltirib chiqaradi. Bundan ham achinarli yana bir holat, Meksika yo'llari orqali Amerika Qo'shma Shtatlariga katta oqim bo'lib ketayotganlar yoshlar hisoblanadi. Axir insonning eng kuchga to'lgan davri 25-45 yosh oralig'i bo'ladigan bo'lsa, chet elga ketayotgan qatlam ham shu yoshni tashkil etishini barchamiz ko'rib turib ko'rmaslikga olyapmiz.

Chet elga o'qish, tadqiqotlar o'tkazish va hokazo, kabi sabablar bilan ketayotgan yoshlarimiz nega o'z Vatanlariga qaytib kelishni istashmayaptilar?



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Singapur davlatida dastlab, mamlakatda islohot o'tkazish jarayonida mutaxassislar chet davlatlariga yuborilgan, ammo ular o'z yurtlariga qaytib kelib, mamlakat rivoji uchun o'z hissalarini qo'shishlariga barcha sharoitlar yaratib berilgan.

Ta'limgan isloq qilish, ilmiy tadqiqot tajriba konstrukturlik ishlari, xorijda malaka oshirish uchun ajratilgan sarmoyalar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini jadal rivojlanishiga, investorlarni, startap loyihalarini qo'llab-quvvatlashga sabab bo'lgan. Startaplarning vujudga kelishi iqtisodiyotdagi tub burilishiga asos bo'ldi. Buning uchun ta'limgan tizimining mukammal tashkil etilishi juda muhim hisoblanadi.

Startap - bu "jamoaviy o'yin" ekanligini esdan chiqarmaslik lozim. Har bir shunday jamoada g'oyalar asoschisi (agar sport terminini qo'llasak - trener) bo'ladi, uni ijrochi (sportchi) va investorlarni izlash bo'yicha agent qo'llab-quvvatlaydi. Startapni inglizchadan so'zma-so'z tarjima qilganda "jarayonning boshlanishi" ni bildiradi. Startap - bu biznesning istalgan turi, undagi farq bozorga avval foydalanilmagan uslubda (o'z-o'zidan qonun bilan taqiqlanmagan) tovarlar yoki xizmatlar taqdim etishda ifodalananadi. "Startup SG" agentligi Singapurdagi yirik startaplarga misol boladi.

O'zbekistonda xalqaro intellektual migratsiya jarayoni iqtisodiyotning ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlariga ta'sir etishini, olingan statistik ma'lumotlarda ko'rishimiz mumkin.

Osiyo taraqqiyot bankining (OTB) yangi hisobotida ayttilishicha, 2023-yilda O'zbekistonda o'sish sur'ati sekinlashishi kutilmoqda, chunki iqtisodiyotdagi talab, ayniqsa, xususiy iste'mol va xizmatlar zaiflashadi. OTB 2023-yil aprel oyidagi Osiyo taraqqiyot istiqboli (ADO)da O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti (YaIM) o'sishi 2023 va 2024-yillarda ham 5 foizni tashkil etadi, bu o'tgan yilgi o'sish 5,7 foizdan bir oz past bo'lishini proqnoz qilgan. Albatta bu jarayonga faqatgina intellektual migratsiyadan tashqari Rossiyaga qarshi davom etayotgan sanksiyalar va ular O'zbekiston eksportiga bo'lgan tashqi talabi ta'sir qilmoqda.

Sanoat 2023 va 2024-yillarda 5,5 foizga o'sishi kutilmoqda, bunda to'qimachilik, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash, tog'-kon sanoatida uglevodorodlarga bo'lgan talab ortib borayotgani va asosan Rossiyadan kiyim-kechak va qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlariga kuchli tashqi talabga javoban o'rtacha tiklanish kuzatilmoqda. Shu bilan birga, oziq-ovqat va uy-joy, omborxona va transport xizmatlariga bo'lgan talabning pasayishi tufayli xizmatlar sohasi o'sishi har ikki yilda 5,5% gacha sekinlashishi kutilmoqda. Xususiy iste'mol va investitsiyalarning o'sishi mo'tadil bo'lishi kutilmoqda.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Qisman amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar va ijtimoiy xarajatlarning ko'payishi hisobiga inflyatsiya bosimi saqlanib qolishi kutilmoqda. Biroq, pul-kredit siyosati qattiqligicha qolayotganligi sababli o'rtacha inflyatsiya 2023-yilda 11% va 2024-yilda 10% gacha pasayishi kutilmoqda. Oziq-ovqat inflyatsiyasini jilovlash uchun hukumat iste'mol qilinadigan yog'lar, parranda go'shti, bug'doy, un va guruchga import bojidan ozod qilishni 2023 yil oxirigacha uzaytirdi.

O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi joriy yilning yanvaridan noyabrigacha 57mlrd 300 mln dollorni tashkil etgan. Bu o'tgan yilgiga nisbatan 26,5% foiz ko'p deb ijoboiy holat ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ammo, qaysi sohadan kelgan daromad hisobiga?

2023 yilning noyabrigacha bo'lgan holatda O'zbekiston eksportining 35,1 % ini oltin tashkil qilgan. 11 oy ichida 8 mlrd 150 mln dollarlik oltin eksport qilingan. Bu 2022 yilning mos davriga solishtirganda 2,3 marta ko'pdir.

Hisobotda qayd etilishicha, aholi soni yiliga 2 foizga o'sayotgan O'zbekistonda ko'proq umumta'lim maktablari va sifatli ta'lim zarur. O'rta ta'lim, jumladan, kasb-hunar maktablari 2022 yilda davlat ta'lim xarajatlarining taxminan 72,3 foizini o'zlashtirdi. Maktabga qabul qilishni qo'shimcha 1,2 million o'quvchiga ko'paytirish uchun hukumat taxminan 1961 ta maktab qurishi yoki ikki smenali darslarga ruxsat berish uchun maktab kunini qisqartirishi kerak.

Hozirgi kunda bizlarni umumiy o'rta ta'lim sifati tashvishga solmoqda. Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi buyrug'i asosida mezonlarga asoslangan baholash tizmini joriy etilishi natijasida subyektivlik bartaraf etilishi o'quvchini haqiqiy bahosini olishga undaydi. Hisobotda ta'kidlanishicha, O'zbekiston iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish uchun fan, texnologiya, muhandislik va matematika (STEM) bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lgan ko'proq malakali ishchi kuchini talab qiladi.

Jahon banki O'zbekistonda "raqamli inklyuzivlik" loyihasini amalga oshirish uchun 50 million dollar miqdorida imtiyozli kredit ajratadi, deya xabar qildi tashkilot matbuot xizmati. Ma'lumotlarga ko'ra, loyiha hukumatning raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlaydi, shuningdek, qishloq va chekka hududlardagi minglab yoshlarning raqamli ko'nikmalarga o'rgatish va axborot texnologiyalari xizmatlarida ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytiradi. Jahon banki tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan yangi loyiha O'zbekistonga ITES xizmatlari sektoridan iqtisodiy o'sish, yangi ish o'rinnari yaratish va xorijiy sarmoyalarni jalb qilish katalizatori sifatida foydalanishga yordam beradi. Bu mamlakatning qishloq va chekka hududlarida



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

istiqomat qiluvchi 30 yoshgacha bo'lgan minglab yoshlarni o'qitish maqsadida Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi IT-Park tomonidan amalga oshiriladi.

Yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlar kelajagimiz bo'lmish yoshlarni ish bilan band qilish, aholi farovonligini oshirishga qaratilganini tushunish qiyin emas. Ammo, yoshlarmiz bunday imkoniyatlardan unumli foydalanmasdan chet elga chiqib ketishayotganini qanday tushunish mumkin? Nega BUGUNGI KUN YOSHLARI ertangi kelajak haqida, davlatimiz ravnaqi haqida tashshvishlanishdan ko'ra chet davlatlarning taraqqiyotiga hissa qo'shishmoqda? O'zлari tug 'ilib o'sgan yurt ravnaqini kim ta'minlab beradi? Buyuk allomalarimiz ham eng qiyin davrda yashagan bo'lsalarda doimo yurt ravnaqi yo'lida fidoylik qilganlar. Bu jarayonga aniqlik kiritish maqsadida turli so'rovnomalar o'tkazilganda savollarimizga yechim topganday bo'ldik!

Ta'lim tizimining barcha bosqichidagi korrupsiyon holatlar, ta'lim berish uslubiyatining zamon talabiga javob bermasligi, kadrlar salohiyati tizimlardagi o'zaro uzviylikning mavjud emasligi, moddiy texnik bazaning qoniqarli ahvolda emasligi, salohiyatli iqtidorli yoshlarmizni yo'qotishga sabab bo'lmoqda.

Iqtisodiyotni tiklash, aholi farovonligi, kredit-moliya sohasidagi ijobjiy o'sish nimaning evaziga bo'layotgani hech kimni tashvishga solayotgani yo'q. Quyidagi ma'lumotlarga e'tibor qarataylik:

O'zbekiston Markaziy banki oktyabr oyida dunyoning boshqa mamlakatlariga qaraganda ko'proq - 11 tonna oltin sotdi. Bu haqda Jahon Oltin Kengashining (WGC) oylik ma'lumotlarida keltirib o'tilgan. O'zbekiston iyun oyida Xitoya tabiiy gaz eksportini oshirdi. Qiymat jihatidan yetkazib berish 85,3 million dollarga oshgan, bu may oyiga nisbatan 9,1 foizga ko'p. Rangli metallardan eng kerakli mis va alyuminiy eksporti: mis 0,5 %, alyuminiy 10 % ga oshirilgan. Bu holat qanday qilib "Yashil inqilob" siyosatini amalga oshirishi mumkinligini tushunish qiyin.

Jahon aholisining salkam 18% i istiqomat qiladigan Xitoy davlatida iqtisodiyotning o'sib borishi ishlab chiqarish sohasidagi kichik biznesni rivojlanishi hisobida amalga oshmoqda, "tabiiy boyliklarni eksport qilish" evaziga emas.

2023-yil oktyabr oyida qimmatbaho metallarning eng faol xaridorlari Xitoy (23 tonna), Turkiya (19 tonna) va Polsha (6 tonna) Markaziy banklari bo'ldi.

O'zbekistonda yoshlarning chet elga ta'ilm olish maqsadida ketib, qora mehnat bilan band bo'lib qolish sabablaridan biri jamiyatimizdagi islohotlarga bo'lgan ishonchni yo'qotishlari, korrupsiya jarayonining chuqur ildiz otganidir.

Iqtisodiyot sohasidagi tabiiy boyliklar hisobida o'sish jarayoni shu tarzda davom etishi, kelajak avlodni qashshoq bo'lishiga sabab bo'lishi mumkinligini hozirdanoq chuqur o'ylab ko'rmog'imiz lozim.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Ta'lim sohasidagi olib borilayotgan jadal islohotlarga jiddiy va fidoyilik bilan yondashmas ekanmiz, itellektual mulkdan ajralib qolamiz. Bizning bu xatomizdan boshqa davlatlar o'zlarining manfaaatlari yo'lida unumli foydalanib olishadi. Aytishadiku, "maqsading yo'lida harakat qilmas ekansan, maqsadlilar o'z maqsadlarida foydalanishadi" deb.

Inson va uning qobiliyatlari, bilim, malakasi har qanday jamiyat farovonligi va davlat iqtisodiy taraqqiyotining asosiy omiliga aylangan bugungi kunda O'zbekistonda ham inson kapitali, shubhasiz, ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ustivor yo'nalishi sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki, inson kapitalini rivojlantirish – innovatsion iqtisodiyot, bilimlar iqtisodiyoti, investitsiyalar, global axborot tizimlari, eng yangi texnologiyalar va biznesning yangi shakllarini rivojlantirishning zarur sharti sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida "Mamlakatning xalqaro maydondagi

raqobatbardoshligi darajasini va innovatsion jihatdan taraqqiy etganini belgilovchi asosiy omil sifatida inson kapitalini rivojlantirish – strategiyaning bosh maqsadidir", deb belgilab berilgan.

Xulosa va takliflar. Intelliktual migratsiya jarayoni yoki inson kapitalidan unumli foydalanish maqsadida qabul qilinayotgan turli qaror va farmoyishlarni amalda joriy etish o'ta muhimdir. Shuningdek,

-Yoshlar ovozini tinglay olishimiz

-ta'lim tizmidagi o'zaro uzviylikni ta'minlash

-ta'lim sifatini yaxshilash

-kadrlar salohiyati

- kasbiy mahoratni uzlusiz rivojlantirib borish

- xorijiy davlatlarga tajriba orttirishni takomillashtirishga qaratilgan davlat dasturini qabul qilish (tajriba almashishni osonlashtirish)

-ilmiy va intellektual mehnatning nufuzi, jamiyatning innovatsion madaniyati.

-olimlarning munosib hayot kechirishi, mahalliy olimlarini maqsadli qo'llab-quvvatlash

-ta'limda raqamlashtirishni yo'lga qo'yish

-ta'lim sohasi va ilmiy tadqiqotlarga ajratilgan sarmoyalarni qayatadan ko'rib chiqish, eng muhimi insonlarda jamiyat taraqqiyotida o'zlarini ko'ra olishlarini ta'minlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz // - T.: O'zbekiston, 2017. 1-tom, 46-bet. 2. Abduvaliev F.N. «Yoshlarning ta'lif migratsiyasi: ijtimoiy sabablari, strukturasi va holati» mavzusida dissertatsiya avtoreferati. Toshkent – 2021 yil, 5-bet
2. To'xtasinov, M. (2022). butun hayot davomida ta'lif olish g'oyasi (lifelong learning) ning mohiyati.integration of science, education and practice. scientific-methodical journal, 1029-1032
3. Зуев А., Мясникова Л. «Интеллектуальный капитал» // РИСК. - № 4. - 2002. - Б.4-13.
4. Mykhajlova, K. (2008). Globalization Changes in Modern Society: Benefits and Risks for Domestic Education. Visnyk Mizhnarodnogho Slov'jansjkogho Universytetu, 1, 13-16.

INTERNET TARMOQLARI:

- 1.<https://uzreport.news/society/jahon-banki-o-zbekistonda-inson-kapitalini-rivojlantirish-sohasida-davlat-xarajatlari-bo-y>
- 2.<https://uza.uz/oz/posts/inson-kapitalini-rivojlantirish-taraqqiyotning-muhim-omili-15-09-2020>
- 3.www.uzedu.uz